



## MUSTAHKAMLASH MATERIALLARI VA KON LAHIMLARINI MUSTAHKAMLASHGA QO'YILGAN TALABLAR.

**Meyliyev To'lqin Meyli o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

Tel:998(99)096-57-20 E-mail: tolqinmeyliyev729@gmail.com

**Geldiyev Rahmatulla Baxtiyor o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

Tel:998(88)806-66-58 E-mail: rahmatullogeldiyev@gmail.com

**Ibragimov Mirjahon Ilhom o'g'li**

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

Tel:998(90)5171756 E-mail:mirjahonibragimov012@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda gorizontal kon lahimlarini mustahkamlagich materiallari va mustahkamlash texnologiyalari ko'rib chiqilgan va shu asosida yangi mustahkamlash texnologiyasini nazariy asoslari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tog'jinsi, kon massivi, kon lahimi, mustahkamlash, mustahkamlagich materiallari, yog'och, beton, temir, polimer, kon bosimi, anker, mustahkamlash texnologiyalari.

Hozirgi kundagi konchilik amaliyoti foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib oluvchi konchilik korxonalariga zaxiralarni katta chuqurliklardan ham qazib olish taklifini bermoqda. Chunki foydali qazilma zaxiralarini geologik tadqiq qilish chuqur gorizontlarda ham qazib olishga yetarli bo'lgan foydali qazilma miqdorlarini



ko'rsatmoqda. Yer osti usulida qazib oluvchi konchilik korxonalarini ushbu zaxiralarini qazib olishni to'g'ridan-to'g'ri kon lahimplari orqali amalga oshiradi. Bu hududdagi kon lahimplarida mustahkamlash ishlarini olib borish uchun, shu joydagи tog' jinslarining fizik-mekanik xususiyatlarini o'rganmasdan turib, mustahkamlash materiallari va ularni mustahkamlash

texnologiyalarini tanlay olmaymiz va amalga oshira olmaymiz. Konlar chuqurlashgan sari, kon lahimplari devorlariga ta'sir qiladigan kuchlarning miqdorlari o'zgarib boradi. Ushbu kuchlarning keskin o'zgarishlari esa kon lahimplarida kon zarbalarini havfini yanada oshirib yuboradi. Bunda mustahkamlagichlarga tushadigan bosim miqdorining oshishi mustahkamlagichlarni deformatsiyalanishiga olib kelishi va ushbu kon



lahimlarida mustahkamlash ishlarini olib borish imkonini bermasligi mumkin. Bu esa chuqur gorizontlarda an'anaviy mustahkamlash texnologiyalarini o'zgartirish zaruratini yuzaga keltiradi. Yer osti rudniklarida qazib olingen bo'shliqni va kon laximlarini mustaxkamlash uchun turli qurilish materiallaridan foydalaniladi, xamda ular 2 turga bo'linadi.

1. Asosiy - yog'och , metall, beton, temir-beton, tosh va g'isht.

2. Yordamchi-sement va suv utkazmaydigan materillar.

Yog'och mustamlagichlar laximlar mustaxkamligi yuqori bo'limgan tog' jinslaridan utilganda va kon bosimi unchalik katta bo'limgan xollarda qo'llaniladi. Mustaxkamlagich sifatida engil va mustaxkam bo'lgani uchun ko'proq qarag'ay yog'ochidan foydalaniladi. Yog'ochlar asosan 2 xil -xodalar xolatida va arralangan taxta shaklida ishlatiladi. Metallar konchilikda keng ishlatiladigan material bo'lib, mustaxkamlagich sifatida asosan temir va po'latdan foydalaniladi. Ulardan kon laximlarini mustaxkamlovchi jixozlar tayyorlanadi. Beton -suniy usulda tayyorlangan material bo'lib, shag'al, qum, sement va suvning nisbatdagi qorishmasidan iborat. Beton uzoq muddat xizmat qiladigan laximlarni mustaxkamlash uchun ishlatiladi. Kon bosimi yuqori bo'lgan xollarda beton orasiga metall armaturalar qo'shilib temir-beton mustaxkamlagichlardan foydalaniladi. Beton va temir -betonning qulayligi shundaki, undan laxmlarning shakliga xamda burilgan joylariga mos mustaxkamlagichlar tayyorlash mumkin. Aytib utilganlardan tashqari tabiiy xoldagi va suniy yul bilan tayyorlangan turli tosh, g'isht, beton bloklari ishlatiladi. Yangi ishlab chiqilayotgan sintetik materiallar xam asta-sekin konchilikda o'z o'rnini topmoqda.

### Lahimlarni mustahkamlash

Mustahkamlagichlar lahim atrofidagi jinslarning o'pirilmasligi uchun o'rnatiladi. Mustahkamlash ishlari lahimplarning shakli va o'lchamlarini saqlash, hamda xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Mustaxkamlagichlar xizmat qilish muddatiga ko'ra doimiy, vaqtincha, tuzilishga ko'ra siyrak, sidirg'a quyilgan romli, ankerli buladi. Mustaxkamlagichlar turi laximning xizmat muddatiga, yuzasining o'lchoviga, bosim kuchiga va iqtisodiy kursatgichlarga bog'lik xolda tanlanadi. Gorizontal laximlarni mustaxkamlashda xizmat kilish muddati 5 yilgacha bulgan laximlarda kon bosimi bir me'yorda bulsa yog'och ishlatiladi. Yog'och mustaxkamlagichning shakli kon laxim shakliga mos xolda tug'ri burchakli yoki trapetsiya shaklida bulishi mumkin. Amaliyotda ko'proq trapetsiya shaklidagi romlar qo'llaniladi. Uch tomonli romning ikki tomoni ustun va yuqori tomoni tusndan iborat buladi. Ustunlar diametri 15-30 sm bulgan xodalardan tayyorlanadi. Ustunlar bir-biriga zichlab yoki oraligi 0,5-1,5 m ga teng masofa qoldirib o'rnatilishi mumkin. Oraligi ochiq qoldirilgan ustunlar taxta bilan tusiladi, bu tusin va kon laximi devorlari orasidagi bushlik tog jinslari parchalari bilan tuldirib chiqiladi. Ustunning pastki uchi chuqurgacha tushirib o'rnatiladi. Bosim oshib ketganda rom biroz pastga siljiydigan bulishi kerak. Shuning uchun ustunning pastki tomoniga uchli kilib shakl beriladi. Bosim ko'payib keta ustunning shu uchi ezilib, rom pastga biroz siljiydi va butunlay buzilib ketishdan saqlaydi. Kon bosimi juda kuchli



bo'lib, kon lahimi uzoq muddat xizmat qilishga mo'ljallanganda temir-beton va beton mustahkamlagich qo'llaniladi. Bunda mustahkamlagichning qalnligi 25-35 sm bo'ladi. Beton mustahkamlagichning qulayligi shundaki, undan har xil shakldagi lahimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Beton, temir-beton, metall va yog'och mustahkamlagichlar asosan tog' jinslarining mustahkamligi o'rtacha va nomustahkam bo'lgan hollarda ishlataladi. Tog' jinslari qattiq va mustahkam bo'lgan hollarda qazilgan lahimlar shaxtadagi kam havo ta'sirida emirilib tushmasligi va portlatish natijasida hosil bo'lgan yoriqlarni mustahkamlash maqsadida chaplama betondan foydalilanadi. Suyuq beton aralashmasi maxsus mashinalar yordamida chaplanadi. Chaplama betonning qalnligi 5 sm dan 10-15 sm gacha bo'ladi. Tik lahimlar ham beton, temir-beton va metall mustahkamlagichlar bilan mustahkamlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Egorov.P.V va boshqalar. Osnovy gornogo dela. M. MGGU, 2000g 405str.
  - 2.Isamuxamedov.U.A. Kon ishlari asoslari. T. O'zbekiston, 1998y. 156 bet.
  - 3.Sagatov.N.X."Kon ishi asoslar". O'quv qo'llanma TDTU, 2005y. 212 bet.
  - 4.Jgalov.M.L., Yarulin.S.A. Texnologiya mexanizatsiya podzemnik (горное дело). M. Nedra, 1990 y. 356 bet
- 5 Mislibayev Ilxom To'ychibayevich Gorizontal kon lahimlarini mustahkamlash texnologiyalarini takomillashtirish 3 bet.